



UDK: 378.011.3-051:005.32

**Mohiraxon BUVAJONOVA,**  
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: [m.buvajonova@mail.com](mailto:m.buvajonova@mail.com),  
<https://orcid.org/0000-0002-9875-5254>

*Pedagogika fanlari doktori, professor M.Boltayeva taqrizi asosida*

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA LEKSIKOGRAFIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV TAMOIYILLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksikografik kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuv tamoyillari hamda ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlar va raqamli ta'lim vositalarining o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** leksikografik kompetentlik, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, lug'at bilan ishlash, interfaol metodlar, raqamli ta'lim.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические основы формирования лексикографической компетентности у учащихся начальных классов, современные педагогические подходы и возможности использования передовых информационных технологий. Анализируется роль интерактивных методов и цифровых образовательных средств в развитии навыков работы со словарём.

**Ключевые слова:** лексикографическая компетентность, начальное образование, современные технологии, работа со словарём, интерактивные методы, цифровое обучение.

## MODERN APPROACHES AND TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING LEXICOGRAPHIC COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation

This article explores the theoretical foundations of developing lexicographic competence among primary school students, highlighting modern pedagogical approaches and the potential of advanced information technologies. The role of interactive methods and digital learning tools in enhancing students' dictionary skills is analyzed.

**Keywords:** lexicographic competence, primary education, modern technologies, dictionary work, interactive methods, digital learning.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimining bosh maqsadi mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, tanqidiy tahlilga qodir va axborotni to'g'ri tahlil qilib undan samarali foydalana oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Bunday shaxsni shakllantirish jarayonida leksikografik kompetentlik muhim o'rin tutadi. Chunki o'quvchilarning lug'at bilan ishlay bilish ko'nikmasi, so'z ma'nolarini anglash, ularni to'g'ri qo'llash va kontekstual tahlil qilish layoqati til madaniyatining poydevorini tashkil etadi.

Leksikografik kompetentlik boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning til boyligini, mantiqiy tafakkurini, ifoda uslubini va so'z tanlash madaniyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun bugungi kunda bu yo'nalishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirgan ta'lim tizimi zarurdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Leksikografik kompetentlik o'quvchining lug'at manbalari bilan ongli ravishda ishlay olish, so'z ma'nolarining mohiyatini chuqur anglash, ularning uslubiy, semantik va kontekstual xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularni amaliy nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir. Mazkur kompetentlik o'quvchining til madaniyatini shakllantiruvchi, muloqot jarayonida fikrni aniq, to'liq va ifodali yetkazish imkonini beruvchi muhim lisoniy ko'rsatkich hisoblanadi.

Ayni paytda, leksikografik kompetentlik o'quvchilarning lingvistik savodxonligi va kommunikativ kompetentligining ajralmas tarkibiy qismi sifatida til haqidagi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Ya'ni, o'quvchi so'zlarni faqat yodlab olish bilan cheklanmay, balki ularning mazmun, shakl va kontekstdagi o'zgarishlarini tushunadi, ularni tahlil qiladi va o'z nutqida maqsadga muvofiq tarzda qo'llaydi.

Ilmiy manbalarda (A.G'ulomov, N.Zunnunova, Sh.Yusupova va boshqa olimlar tadqiqotlarida) ta'kidlanishicha, leksikografik kompetentlik murakkab ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, u quyidagi asosiy qismlardan tashkil topadi:

1. Leksik bilim – bu o'quvchining so'z boyligini bilish, so'zlarning leksik-semantik guruhlarini (sinonim, antonim, omonim, paronim) farqlash, frazeologik birikmalarni anglash va ularning nutqdagi o'rnini to'g'ri tushunish qobiliyatidir.

2. Leksik ko'nikma – bu o'quvchining turli lug'at turlari (izohli, orfografik, sinonimik, ikki tilli va boshqalar) bilan mustaqil ishlay olish, kerakli so'z ma'nosini topa bilish, uni tahlil qilish hamda kontekstda qo'llash malakasidir.

3. Leksik malaka – bu o'quvchining o'rganilgan so'zlarni og'zaki va yozma nutqda faol, to'g'ri, stilistik

jihtadan mos qo'llay olish, ularni kommunikativ vaziyatga moslashtirish qobiliyatidir.

Shunday qilib, leksikografik kompetentlik o'quvchilarga til haqidagi nazariy tushunchalarni amaliy faoliyatga tatbiq etish, so'zlar va ularning ma'nolarini ijodiy va kontekstual yondashuv asosida qo'llay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining til hissini, tahliliy tafakkurini, nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda uni ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur kompetentlikning shakllanishi nafaqat til o'rganish jarayonida, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki o'quvchi har bir yangi so'z orqali nafaqat leksik ma'noni, balki ilmiy, madaniy va axboriy kontekstni ham o'zlashtiradi. Shu bois leksikografik kompetentlikni rivojlantirish bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonida til o'qitish metodikasining markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda leksikografik kompetentlikni shakllantirish jarayoni ta'limning zamonaviy talablari va ilg'or pedagogik yondashuvlari asosida tashkil etilishi lozim. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning til boyligini oshirish, balki ularning faolligi, ijodkorligi, mustaqil fikrlash qobiliyati va bilimga bo'lgan ichki motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'limda o'quvchining faqat bilim oluvchisi emas, balki faol ishtirokchi va ijodiy sub'ekt sifatida shakllanishi eng muhim didaktik tamoyillardan biridir. Shu bois, leksikografik kompetentlikni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, integrativ va innovatsion yondashuvlarni uyg'un qo'llash zarur.

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Ushbu tamoyil har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, bilim darajasini, o'rganish tezligini va qiziqish sohalarini inobatga olishga qaratilgan. O'quvchi o'zining shaxsiy imkoniyatlariga tayanib, so'z boyligini mustaqil oshirish, yangi so'zlarning ma'nosini topish, ularni kontekstda tahlil qilish orqali o'z bilim faoliyatini boshqarishni o'rganadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda o'qituvchi o'quvchining faol o'rganish jarayonini yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va motivatsiya yaratuvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. Natijada o'quvchi o'z o'qish jarayonining sub'ekti bo'lib, o'z bilimlarini refleksiya qilish va mustaqil nazorat qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

2. Faoliyatga asoslangan yondashuv. Bu yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchini bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. O'quvchi lug'atlar bilan ishlash, yangi so'zlarni topish, ularning ma'nosini izohlash, sinonim va antonim munosabatlarini aniqlash orqali faol bilish faoliyatiga jalb etiladi. Shuningdek, kontekstual tahlil, matn ustida ishlash, so'zlardan yangi iboralar hosil qilish kabi mashqlar orqali o'quvchilarning tahliliy va ijodiy tafakkuri shakllanadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, til materiallarini amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuvda "o'quvchi o'rganadi" tamoyili o'rnini "o'quvchi o'rganishni o'rganadi" prinsipi egallaydi, ya'ni o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki uni o'z faoliyati orqali kashf etadi.

3. Integrativ yondashuv. Til o'qitish jarayonini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish zamonaviy ta'limda interdisiplinar yondashuvning asosiy ko'rinishidir. O'quvchi tabiatshunoslik, tarix, matematika, texnologiya kabi fanlarda yangi atamalar bilan tanishar ekan, ularning lug'aviy ma'nosini izlab topish, izohini tushunish va kontekstdagi qo'llanilishini tahlil qiladi. Masalan, "ekotizim", "quvvat", "madaniyat" kabi fanlararo atamalarni lug'atlar orqali o'rganish o'quvchilarda leksikografik fikrlash, ya'ni so'zning mohiyatini fanlararo kontekstda tushunish ko'nikmasini shakllantiradi. Natijada, o'quvchi tilni faqat aloqa vositasi

sifatida emas, balki bilim olishning universal manbai sifatida idrok etadi. Integrativ yondashuv o'quvchilarning umumiy tafakkur doirasini kengaytiradi, ularni fanlararo bog'liqlikni anglay oladigan va bilimni turli sohalarida qo'llay oladigan shaxsga aylantiradi.

4. Innovatsion yondashuv. Bugungi raqamli ta'lim muhiti sharoitida innovatsion texnologiyalarni o'qitish jarayoniga tatbiq etish leksikografik kompetentlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Elektron lug'atlar, multimedia resurslar, mobil ilovalar va interfaol platformalar ("Quizlet", "Wordwall", "LearningApps", "Kahoot") yordamida o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish, ma'lumotlarni tezkor izlash, tahlil qilish va eslab qolish imkoniyatlari ortadi. Raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarda axborot madaniyati, raqamli savodxonlik va mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantiradi. Shu bilan birga, o'yinlashtirilgan o'quv mashg'ulotlari (gamifikatsiya) orqali ularning motivatsiyasi, qiziqishi va ishtiroki sezilarli darajada ortadi. Innovatsion yondashuv shuningdek, o'qituvchiga o'quvchilarning individual rivojlanishini kuzatish, natijalarni tahlil qilish va ularning til boyligini monitoring qilish imkonini beradi.

**Tahlil va natijalar.** Boshlang'ich ta'limda leksikografik kompetentlikni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) muhim metodik vosita sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, lug'at bilan mustaqil ishlash malakasini rivojlantirish va tilni chuqur anglash jarayoni interfaol texnologiyalar, raqamli resurslar va innovatsion o'qitish uslublari orqali amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan AKT vositalari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularni so'z ma'nosini izlash, tushunish va kontekstdagi qo'llanilishini tahlil qilishga yo'naltiradi. Shu jihatdan, quyidagi texnologiya va metodlar o'zining amaliy samarasi bilan ajralib turadi:

1. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. Raqamli vositalar elektron lug'atlar, mobil ilovalar, onlayn o'yinlar va interaktiv platformalar o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va ularni tezkor ravishda eslab qolish imkoniyatini yaratadi. Masalan, "Oxford Learner's Dictionary", "Quizlet", "LingQ", "Wordwall" kabi resurslar so'z yodlashni o'yinli shaklda amalga oshiradi. Bunday jarayonlar an'anaviy yodlash metodlariga nisbatan ko'proq motivatsion ta'sir ko'rsatadi. Elektron lug'atlar yordamida o'quvchilar nafaqat so'zning ma'nosini, balki uning talaffuzi, grammatik shakli va sinonimik tarmog'ini ham o'rganadilar. Bu esa lug'at bilan ishlashni ko'p tomonlama bilish faoliyati darajasiga olib chiqadi.

2. Interfaol metodlar. Leksikografik kompetentlikni shakllantirishda interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning tahliliy tafakkurini rivojlantiradi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Tarmoqlash", "So'z zanjiri" kabi metodlar o'quvchilarga so'zlar o'rtasidagi ma'no aloqalarini aniqlash, yangi so'z birliklarini yaratish, shuningdek, lug'at materiallarini tizimlashtirish imkonini beradi. Bu metodlar o'quvchilarning faol fikrlashini, hamkorlikda o'rganish va ijodiy tafakkurini rag'batlantiradi. Ayniqsa, "So'z zanjiri" yoki "Klaster" metodlari orqali o'quvchilar so'zning semantik tarmog'ini mustaqil qurish orqali so'zlararo bog'liqlikni tahlil qilishni o'rganadilar.

3. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi. Leksikografik kompetentlikni rivojlantirishda loyihaviy yondashuv o'quvchining mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishda samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuv asosida o'quvchilar "Mening shaxsiy lug'atim", "Fan terminlari lug'ati" yoki "Qiziqarli so'zlar ensiklopediyasi" kabi mini-loyihalar yaratish orqali o'z bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar. Bunday faoliyat o'quvchilarda tadqiqot olib borish, axborot to'plash,

ma'lumotni tahlil qilish va tizimlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Loyihaviy ta'lim jarayoni o'quvchilarni so'zlarni to'g'ri izohlash, ularning o'zaro farqini tushunish va kontekstda ishlatish malakasiga ega bo'lishga undaydi.

4. Gamifikatsiya texnologiyasi. Gamifikatsiya – o'quv jarayoniga o'yin elementlarini tatbiq etish orqali o'quvchilarning qiziqishini va ichki motivatsiyasini oshiruvchi zamonaviy metodik yondashuvdir. Leksikografik kompetentlikni rivojlantirishda gamifikatsiya o'quvchilarni raqobat asosida o'rganishga undaydi, bu esa ularning so'z boyligini tabiiy va zavqli yo'l bilan oshirishga imkon yaratadi. Masalan, so'z topish o'yinlari, so'z krossvordlari, interaktiv testlar, raqamli "Vocabulary Challenge" mashg'ulotlari orqali o'quvchilar so'zlarni yodlaydi, sinonim va antonimlarni aniqlaydi, lug'at bilan ishlashdan zavq oladi. Gamifikatsion metodlar o'quvchilarda bilimni amalda qo'llash, jamoaviy o'rganish va raqobat asosida muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytiradi.

O'qituvchi leksikografik kompetentlikni rivojlantirish jarayonida ta'lim faoliyatining bosh yo'naltiruvchisi, fasilitator va mentor sifatida muhim rol o'ynaydi. U o'quvchilarning lug'at bilan ishlash jarayonini to'g'ri yo'naltiradi, ularda mustaqil izlanish va bilim olish motivatsiyasini shakllantiradi.

O'qituvchi faoliyati quyidagi metodik vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Lug'at bilan ishlash metodikasini o'rgatish. O'quvchilarga lug'atdan maqsadli foydalanish, kerakli so'z ma'nosini topish va tahlil qilish yo'llarini ko'rsatadi.

2. Mustaqil izlanishni rag'batlantirish. O'quvchilarga mustaqil so'z izlash, ularning ma'nolarini solishtirish, matnlarda qo'llanilishini tahlil qilish imkonini yaratadi.

3. Diagnostik monitoring olib borish. O'quvchilarning so'z boyligini o'sishini baholash uchun test, kuzatuv va analitik baholash usullaridan foydalanadi.

4. Raqamli vositalardan foydalanish. Elektron lug'atlar, terminologik bazalar, ikki tilli va tematik lug'atlar orqali o'quvchilarning leksik salohiyatini tahlil qiladi va rivojlantiradi.

O'qituvchining o'zi ham zamonaviy raqamli vositalar bilan ishlashda pedagogik texnologiyalar, media savodxonlik va AKT kompetensiyalariga ega bo'lishi zarur. Chunki o'qituvchi o'quvchiga nafaqat so'z ma'nosini, balki so'z orqali bilim olish yo'lini o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksikografik kompetentlikni shakllantirish faqatgina lug'at bilan ishlash ko'nikmasini egallash emas, balki tilni anglash, tafakkurni kengaytirish, muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonidir. Zamonaviy ta'lim tamoyillarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning lug'at boyligi, so'z tanlash madaniyati, mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish mumkin. Elektron lug'atlar, raqamli platformalar, interfaol o'yinlar va loyihaviy ishlar ta'lim jarayonini qiziqarli, faol va natijador qiladi. Kelgusida boshlang'ich ta'lim metodikasida leksikografik kompetentlikni shakllantirishning psixolingvistik, kognitiv va raqamli jihatlarini chuqur o'rganish alohida ilmiy yo'nalish sifatida dolzarb bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda tilni o'rganishning innovatsion, tahliliy va ijodiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. G'ulomov, A. (2020). Pedagogik texnologiyalar asoslari. - Toshkent: Fan va texnologiya. - 256 b.
2. Yusupova, Sh. (2021). Til ta'limida innovatsion metodlar. - Toshkent: Ilm Ziyo. -212 b.
3. Zunnunova, N. (2022). Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligi. - Samarqand: SamDU nashriyoti. - 240 b.
4. Qodirov, B. (2019). Boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi. - 180 b.
5. Sharipova, M. (2020). Leksikologiya va leksikografiya asoslari. - Toshkent: Universitet. - 228 b.
6. Karimova, D. (2020). Boshlang'ich sinflarda lug'at bilan ishlashning interfaol usullari. Boshlang'ich ta'lim, 3(1), 45–59-betlar.
7. Rasulov, J. (2021). Gamifikatsiya elementlari yordamida leksik kompetensiyani rivojlantirish. Pedagogika va psixologiya, 25(2), 88–97-betlar.
8. Tursunova, N. (2022). Elektron lug'atlar bilan ishlashning metodik modeli. Til va adabiyot ta'limi, 4(3), 60–72-betlar.
9. Abdullayeva, S. (2023). Integrativ yondashuvda terminologiyani o'qitish. O'qituvchi jurnali, 7(2), 101–112-betlar.